

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning taraqqiyoti

Xusainov Shamshidin Yalgashevich, Eshmuradov Kodir Abriyevich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti (SamDAQU)

Annotatsiya. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportini rivojlantirishni ta’minlash maqsadida, joylarda sport muassasalarining barpo etilishi, yangi-yangi sport turlaridan to‘garaklar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, ularning tegishli jihozlar va malakali sport bilan shug‘ullanayotgan bolalar va o‘smlilar soni yildan-yilga ortib borishiga asos bo‘lmoqda.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya va sport, olimpiada, ommaviy sport, sog‘lom turmush tarsi, musoboqalar.

Asosiy qism. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, millat genofondini yanada sog‘lomlashtirish, barkamol avlodni tarbiyalash borasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish ahamiyati jamiyatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Qisqa muddatda bu sohada olib borilgan keng ko‘lamli amaliy harakatlar o‘z samarasini bera boshladi.

Ma’lumki, mamlakatimiz sporti 1991-yilgacha yurtimizning sanoqli sportchilarigina Olimpiya o‘yinlari, jahon va yevropa miqyosidagi nufuzli musoboqalarida qatnasha olardi. Mayjud muammolarni bartaraf qilish maqsadida mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakat rahbarining tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar mahkamasining qarorlari bosqichma-bosqich qabul qilinib, ular joriy etildi.

Qisqa muddatda:

- Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning tashkiliy asoslari takomillashtirildi;
- O‘zbekiston milliy olimpiya qo‘mitasi (MOQ), sport turlari bo‘yicha federatsiyalar tashkil qilindi;
- Jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish, ommaviy sport ishlari va sportning milliy turlari rivojlantirildi;

- Jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, milliy ta’lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasi bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash va qayta o‘qitish ishlari amalga oshirilmoqda.

1992-yilning 14-yanvarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning huquqiy asosi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun, 2000-yil 26-may “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2015-yil 4-sentyabrdan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida qonun qabul qilindi.

Yurtimiz sportchilari Olimpiya o‘yinlarida ilk marotaba mustaqil jamoa sifatida Amerikaning Atlanta shahrida 1996-yilda qatnashib, dzyu-dochi Armen Bagdasarov kumush, bokschi Karim To‘laganov esa bronza medallarini qo‘lga kirtdilar.

2000-yil Avstraliyaning Sidney shahrida o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida esa sportchilarimiz vatanimiz sharafini himoya qilib, bokschilardan Muhammadqodir Abdullayev oltin, Rustam Saidov bronza, Sergey Mixaylov bronza, erkin kurashchi Artur Taymazov kumush medallar sohibi bo‘ldilar.

2004-yil Gretsianing Afina shahrida o‘tkazilgan Olimpiya o‘yinlarida esa vatanimiz sharafini himoya qilib, erkin kurash bo‘yicha Artur Taymazov oltin, Magamed Ibragimov kumush, yunon-rum kurashi bo‘yicha Aleksandr Dokturashvili oltin, boks bo‘yicha Bahodir Sultonov bronza, O‘tkirbek Haydarov bronza medallarini qo‘lga kiritishdi.

2008-yil Xitoyning Pekin shahrida bo‘lgan Olimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz erkin kurash bo‘yicha Artur Taymazov oltin, Soslan Tigiyev kumush, dzyu-do bo‘yicha Abdullo Tangriyev kumush, Rishod Sobirov bronza, gimnastikachilar Anton Fokin va Yekaterina Xilkolar bronza medallarini qo‘lga kiritishdi.

2012-yil Buyuk Britaniyaning London shahrida o‘tkazilgan Olimpiya o‘yinlarida yurtimiz sharafini himoya qilgan sportchilarimiz erkin kurash

bo‘yicha Artur Taymazov oltin, dzyu-du bo‘yicha Rishod Sobirov bronza, boks bo‘yicha Abbos Atoyev bronza medallarini qo‘lga kiritishdi.

2016-yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo‘lib o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida yurtimiz sharafini himoya qilgan sportchilarimiz boks bo‘yicha Hasanboy Do‘smatov oltin, Shahobiddin Zoirov oltin, Fazliddin G‘oibnazarov oltin, Shahram G‘iyosov kumush, Bektemir Meliqo‘ziyev kumush, Rustam To‘laganov bronza, Murodjon Ahmadaliyev bronza, og‘ir atletika bo‘yicha Ruslan Nuriddinov oltin, dzyu-do bo‘yicha Diyorbek O‘rozboyev bronza, Rishod Sobirov bronza, yunon-rum kurashi bo‘yicha Elmurat Tasmuradov bronza, erkin kurash bo‘yicha Ixtiyor Navruzov va Magomed Ibragimovlar bronza medallarini qo‘lga kiritishdi.

2020-yil Yaponianing Tokyo shahrida bo‘lgan Olimpiya o‘yinlarida yurtimiz sharafini himoya qilib sportchilarimiz boks bo‘yicha Bahodir Jalolov oltin, og‘ir atletika bo‘yicha Akbar Jo‘rayev oltin, taekvondo bo‘yicha Ulug‘bek Rashitov oltin, dzyu-do bo‘yicha Davlat Bobonov bronza, kurash bo‘yicha Bekzod Abdurahmonov bronza medallarini qo‘lga kiritishdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon o‘zbekistonlik sportchilar xalqaro Olimpia o‘yinlarida 13 ta oltin, 7 ta kumush va 21 ta bronza medallarini qo‘lga kiritgan.

Qisqa davrda sport sohasida amalga oshirilgan ishlar ko‘lami, O‘zbekistonning bu boradagi tajribasi jahonda e’tirof etildi.

Olimpiya o‘yinlari dasturidan o‘rin olgan sport turlarini mamlakatda rivojlantirish bilan birga, milliy sport turi “Kurash”ning jahon sport arenalariga olib chiqish borasida mislsiz ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda xalqaro kurashni rivojlantirish jamg‘armasi tuzildi. Xalqaro kurash assotsatsiyasi hamda Xalqaro kurash akademiyasiga davlat tomonidan huquqiy va amaliy jihatdan kata e’tibor ko‘rsatildi.

O‘zbekistonning sport sohasida erishgan eng kata yutuqlaridan biri milliy kurashning dunyo miqyosiga chiqishi bilan bog‘liqdir. Hozirda jahonning 70dan ortiq mamlakatida kurash federatsiyalari tuzildi. Bu milliy sport turi bo‘yicha dastlabki Osiyo, Yevropa, Afrika qit’alari va jahon championatlari o‘tkazildi.

Milliy kurash bo‘yicha Toshkent shahrida o‘tkazilgan 1-jahon championatida 48 davlatdan sportchilar ishtirok etgan bo‘lib, O‘zbekiston sportchilari 3 ta oltin va 3 ta bronza medallarini qo‘lga kiritishdi.

O‘zbek milliy kurashi bo‘yicha Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan VII jahon championatida O‘zbekistonlik sportchilar 4 ta oltin 2 ta kumush va 2 ta bronza medallarini qo‘lga kiritib umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egallahdi.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir qonun, farmon va qarorlar bu sohaning tez sur’atlar bilan taraqqiy etishig, xalqaro maydonda O‘zbekiston nufuzi va obro‘sining oshishiga, qolaversa aholining, ayniqsa o‘quvchi-yoshlarning sportga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga olib keldi. Jumladan:

1993-yil 18-mart “O‘zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirish to‘g‘risida” O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori;

1996 yil 17-yanvar “O‘zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirish tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomoillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 27-son qarori;

1999-yil 27-may “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 271-son qarori;

2006-yil 1-may “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ 338-son.

Mamlakatda sog‘lomlashtirish ishlari barcha ijtimoiy va ishlab chiqarish soha muassasalarida jonlandi, boshlang‘ich sport jamoalarining ishlari faollasha boshladi.

Joylarda sport turlarining jadal rivojlanishi shug‘ullanuvchilar sonining muntazam oshishiga va aholini ommaviy tarzda qamrab oladigan turli musoboqalarning tashkil etilishiga zamin yaratmoqda. Bu musoboqalar orqali o‘quvchi yoshlari, nogironlar, ishchi va xizmatchilar, barcha ijtimoiy qatlamga mansub aholi vakillari sportga jalb qilindi. Har yili umumta’lim maktabi o‘quvchilari, o‘liy ta’lim muassasalari talabalari, ishchi va xizmatchilar, huquqtarg‘bot, mudofaa xodimlari o‘rtasida sport o‘yinlari bo‘yicha “Kamolot kubogi”, milliy sport o‘yinlari musoboqalari, harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlari o‘rtasida “Shunqorlar” harbiy sport musoboqalari, nogironlar o‘rtasida “Jasorat-irodag‘alaba” musoboqalari, spartakiadalar va boshqalar muntazam o‘tkazib

kelinmoqda. 1991-yildan boshlab bugungi kungacha bo‘lgan vaqt oralig‘ini hisoblab chiqadigan bo‘lsak bu vaqt oralig‘ida jismoniy tarbiya va sport sohasida qo‘lga kiritilgan ulkan yutuqlarni ko‘tishimiz mumkin. Bu vaqt oralig‘ida Olimpiada o‘yinlari hamda jahonning nufuzli musoboqalari va championatlarida ishtirok etib yuqori natijalarни ko‘rsatayotgan va g‘alaba qozonayotgan sportchilarimiz soni sezilarli darajada oshib kelmoqda.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunga kelib mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan e’tiborning benihoyat yuqoriligidan kelgusida jahon arenalarining shohsupasidan o‘rin egallaydigan sportchilarimiz soni yildan-yilga oshib boraveradi va g‘alabamiz ko‘lami kengayaveradi deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov U., Xusainov Sh.Y., Eshmuradov K.A. “Jismoniy tarbiya va sport ta’limida kurash milliy sport turning o‘tmishi va kelajagi” – o‘quv qo‘llanma. Samarqand-2021yil.
2. Shamshidin Yalgashevich, K., Abriyevich, E. Q., & Kuchkarovich, N. B. (2023). Analysis of the Technique of Teaching the Jerk in Weightlifting. Eurasian Research Bulletin, 17, 121-128.
3. Yalgashevich, K. S., Abriyevich, E. K., Kuchkarovich, N. B., & Vladislavnovna, K. D. (2021). WRESTLING IS THE PAST AND FUTURE OF NATIONAL SPORTS. World Bulletin of Management and Law, 3, 26-30.
4. https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2012/10/121030_latin_uzbek_kurash
5. <http://mustaqillik.uz/ru/events/view/53>
6. <https://uz.wikipedia.org>
7. <https://olamsport.com>
8. <https://usport.uz>
9. <https://www.gazeta.uz>

**Research Science and
Innovation House**